

Labaratoriya mashg'uloti ishlanmasi

G. Tojiboeva Yo.YUsupova

MAVZU: - IDROK.2 soat

ISHNING MAQSADI: Inson hayotida idrokning roli va idrok hususiyatlarining aniqligini, chuqurligini amaliy o'rganish. Tanib olish metodi yordamida idrok apparsepsiyaning rolini tekshirish, vaqtni idrok kilishdagi aniqlikni tekshirish, teri (taktil) va ko'rish idrokining xususiyatlarini tekshirish,

NAZARIY MA'LUMOTLAR: 1. IDROK VA UNING TURLARI XAQIDA TUSHUNCHA.

Idrok sezgi organlarimizga bevosita ta'sir yetib turgan narsa va xodisalarning ongimizda butun, yaxlit xolda aks yettirishdan iborat bo'lgan psixik jarayondir. Idrok - protsessida barcha ruxiy xayotimiz ongimizning butun mazmuni, bilimlarimiz va tajribalarimiz ishtirok yetadi. Shuning uchun xam idrok sezgilarga nisbatan murakkabrok va mazmundor psixik jarayon bulib xisoblanadi. Idrokning *fiziologik asoslari* ko'zgovchilar yigindisi ta'sirida bosh miya yarim sharlari kobigida xosil bulgan shartli reflektor(muvakkat) nerv bog'lanishlardan iborat.

Idrok perseptiv xarakterga yega. Chunki kishilar idrokining mazmuni bir biridan farq qiladi. Kishilar aynan bir xil narsani uz bilim darajasi, turmush tajribasi dunyokarashi xamda ijtimoiy kelib chikishi karab turlicha idrok kiladilar.

Idrokning nechoglik mazmundorligi shaxsning dunyokarashi, ye'tikodi, ideali, bilim va madaniy saviyasi, xayotdan orttirgan tajribalari xamda kizikishlariga bog'lik. Idrok kaysi organ orkali amalga oshirilishiga karab: ko'ruv, yeshituv idroki: obektiga karab: vakt (zamon), xarakatni, fazo (makon) ni idrok kilish kabi turlarga ajratib urganiladi.

Vaktni idrok qilish - materiyaning yashash formasi - muayyan ob'ektiv birligini ongimizda bevosita aks yettirilishidan iborat. Vaktni idrok kilish asosan ruxiy xodisalarimizning almashinuvi tufayli ruy beradi. Vaktni idrok kilish idrok kilinayotgan vakt birligining ob'ektiv mazmuniga xamda bizning unga bulgan munosabatimizga bog'lik. Masalan, bizning yextiyoj va kizikishlarimizga mos bulgan vakt birligini idrok kilganimizda, vakt sub'ektiv jixatdan tez idrok qilinadi va aksincha.

Xarakatni idrok qilish - jismlarning fazo (makon) dagi urin almashtirishini be'vosita aks yettirishidir. Harakat nisbatan va nisbatsiz idrok qilinadi: agar xarakatdagi jism atrofidagi boshka harakatsiz jismlarga takkoslab idrok kilinsa, bu harakatni nisbatan idrok qilish deyiladi: aksincha, harakatdagi xech narsaga taqqoslanmay idrok qilinsa, bu harakatni nisbatsiz idrok qilish deyiladi.

Fazoni idrok qilish.- voqelikdagi narsa va xodisalarning fazoda tutgan urnini, shaklini, mikdorini hamda bir-birlariga nisbatan munosabatlarini uch ulchovda: balandlik, kenglik, uzoklikda bevosita aks yettirishdan iboratdir.

Ishning bajarish tartibi. Idrokning hususiyatlari bo'yicha quyidagi tartibda tajribalar o'tkaziladi

1-. Idrok jarayonida apparsepsiyaning roli

Ishning maqsadi. Tanib olish metodi yordamida idrok apparsepsiyaning rolini tekshirish.

Ish uchun zarur jixoz va asboblari: turli xil buyumlar: galtakchalar, iplar, angushona, surat plenkasini uraydigan kasseta (galtaklar), lab buyogi (pomada), soch turmaklagich (bigudi)lar, ilmatugma, yelektr lampa patronlari, o'yinchok mashina gildiraklari va xakazo buyumlar tuplamlari.

Ishning bajarish tartibi;

Tadqiqotchi va karor yozuvchi o'kituvchi bergan zarur ashyolar bilan oldindan tanishib chikadi. Tekshiriluvchi esa bu buyumlarni ko'rmasligi lozim. U Ko'zi bog'langan xolda unga takdim yetilgan buyumlarni ushlab, paypaslab ko'radi va nomini aytadi. Karor yurituvchi tekshiriluvchi tomondan predmetning nimaligini aniqlash uchun Sarflangan vakt javobning to'g'ri yoki noto'g'riligi va tekshiriluvchining tajriba vaktida o'zini tutishi kabilarni qayd yetib boradi. So'ngra mazkur nomlari aytilgan buyumlar bilan tekshiriluvchining xayotiy tajribasi o'rtasida qanaqa bog'lanishlar mavjud ekanligi aniqlanadi. Tajriba xar bir tekshiriluvchi bilan boshka-boshka ashyolar yordamida o'tkazilib, juz'iy xulosalar chiqariladi.

Ish natijalarini taxlil qilish. Tajribalar natijalari quyidagi jadvalda aks ettiriladi.

Buyumlar tuplami	Taniy olish vakti	Tekshiriluvchini ng javobi	Tekshiriluvchining o'zini tutishi
Kasseta			
Ip o'ralgan g'altak			
Soch turmaklagich			
Lampa patroni			

So'ngra xar qaysi tekshiriluvchidan olingan natijalar taqqoslab chiqiladi. Buyumlarni paypaslab idrok etish orkali tanib olishda o'tmish tajriba (appersepsiya) ning roli xaqidagi ma'lumotlar qarorda qayd qilinadi.

2-VAQTNI IDROK QILISH

Ishning maqsadi: vakti idrok qilishdagi aniqlikni tekshirish.

Ish uchun zarur jixozlar: sekundomer yoki sekund strelkali soat.

Ishning bajarish tartibi;

Tekshiriluvchi 3,5,10,17 sekundga to'g'ri keluvchi vakt birliklarini aniqlashi lozim. Ishning stol ustiga kalamni orkasi bilan urib vaktning boshlanishi va tugash nuktalarini belgilaydi. Tekshiriluvchi xisoblamay va boshka vositalarni qo'llamay turib mazkur vakt oralig'ini aniqlaydi va sekundlarga chakib yozib beradi.

Ishning natijalarini taxlil qilish. O'tkazilgan tajriba natijalarini dastlab jadvalda aks yettiriladi.

Tajriba nomeri №	Tavsiya kilingan ko'zgovchi	Tekshiriluvchining ko'rsatmasi	Chamalab aytilgan vaqt bilan real xisobdagi urtasidagi fark

So'ngra vaktning idrok qilishning aniqlik foizi S topiladi

$$A \cdot 100$$

$$S = \frac{\quad}{\quad}$$

$$V$$

Bu yorda A- sekund xisobida tavsiya kilingan vakt bilan tekshiriluvchi ifodalagan vakt o'rtasidagi fark. V – Tadqiqotchi tomonidan tavsiya kilingan vakt bo'lagi. Ana shunday xisob bilan tekshiriluvchining vakti aniqlashda idrok qila olish xususiyatiga yega ekanligi xaqida dalilli xulosa chikariladi.

3-FAZOVIY MUNOSABATLARNI IDROK QILISH

Ishning maqsadi. Chiqarilayotgan tovush manbaini aniqlash yordamida Yeshitish qo'zgovchisining fazoviy cheklanish aniqligini tekshirish

Ish uchun zarur jixoz va asboblari ikkita tanga, sekundomer yoki sekundi bor soat

Ishning bajarish tartibi;

Tekshiriluvchi ko'zi yumilgan yoki bog'langan xolda stuldan kimirlamay o'tiradi. Tadqiqotchi bosh va ko'rsatkich barmoklari orasida ikkita tangani qisib ushlab, uning old tomonida tik turadi va tekshiriluvchining boshidan bir xil uzoklikda dam unga, dam sulga dam orkaga, dam oldinga kulini chuzib, tangalarni bir biriga ishkallab (bir xil yunalishda 3-5 marta, biroq uzluksiz emas), ulardan tovush chikaradi, jaranglatadi. Tekshiriluvchining ovoz manbai kaysi tomonda ekanligini ko'rsatib beradi.

Tekshiriluvchi bu vazifani bajargandan sung unga usha xil vazifani bir kulogini berkitgan xolda bajartirish lozim.

Ishning natijalarini taxlil qilish. Karor yurituvchi tekshiriluvchining ovoz manbaini yunalishini aniqlash buyicha natija ko'rsatmalarini, to'g'ri javoblar sonini, bu javoblar uchun ketgan vakti xisoblab, jadvalda kayd kilib turadi.

Tavsiya nomeri	Tovush manbaining joylashgan tomoni	Tekshiriluvchining javobi	Latent vakti	To'g'ri javoblar soni

Tekshiriluvchi kelayotgan tovush urnini bir necha bor aniqlagandan sung tovushni kaysi tomondan tarkalish aniqligi kuyidagi formula yordamida xisoblanadi.

$$S = \frac{A \cdot 100}{V}$$

A – bir yo'nalishga oid to'g'ri javoblar soni

V – shu yo'nalishda olib borilgan tajribalar soni

Ish so'ngida tovush manbai tarkalish natijalariga oid umumiy xisoblar ikki kulok va bir kulok bilan yeshitib, aniqlangan natijalar asosida taqqoslanadi.

Shunday qilib, o'tkazilgan barcha tajriba natijalari xaqida umumiy xulosa chiqariladi

4- TERI TUYuSh (TAKTIL) VA KO'RUV IDROKI

Ishning maqsadi. teri (taktil) va ko'rish idrokining xususiyatlarini tekshirish

Ish uchun zarur jixoz va asboblal qattiq qogoz yoki kartondan tayorlangan bir necha juft shakllar(talabalar o'zlari oldindan tayorlaydilar).

Ishning bajarish tartibi;

Tekshiriluvchining binoan tekshiriluvchi ko'z bilan ko'rmagan xolda oldindan tanish bulmagan shaklni kuli bilan bir minut vakt mobaynida paypaslab, kul barmoklarining terisi orkali idrok kiladi. Keyin usha shaklni kogozga chizadi. Karor yozuvchi uni ko'zatib, xatti-xarakatlarini jadvalda kayd kilib boradi. Tekshiriluvchining chizgan rasmini uni oldidan olib kuyadi. Shundan sung Tadqiqotchi sinaluvchiga original shaklni ko'rsatadi. Sinaluvchi esa ko'rsatilgan rasmni bir minut mobaynida ko'rib chikadi va Shundan sung shaklni boshkatdan chizadi.

Ish natijalarini taxlil qilish. Tajriba natijalarini jadvalda kayd qilinadi. Xar bir tekshiriluvchi chizgan rasmlari takkoslanadi va turli gruppaa sinaluvchilarining teri taktil xarakat xamda ko‘rinish idrokiga xos xususiyatlarni solishtirib, umumiy xulosaga kelinadi.

Tadqiqotninig vazifalari	Original rasmning sinaluvchi chizgan rasmga nisbatan farqi	Tekshiriluvchining xatti-xarakati
Paypaslab ko‘rish orqali aniqlash		
Ko‘rish orqali aniqlash		

HISOBOT REJASI

- 1) Ishning mavzusi maqsad va vazifalari
- 2) Ishni amalga oshirish rejasi, tuzilish artibi
- 3) Bajarilgan ishga atroflicha (kengaytirillgan) tavsif tayyorlash
- 4) Olingan natijalar
- 5) O‘tkazilgan nazorat mashqlarini o‘ziga hos tomonlarini ajratish
- 6) Hulosa va mulohazalar

TAYaNCh SO‘Z IBORALAR:vaqtni, fazoni, xarakatni,idrok qilish, fazoviy cheklanish, ranglar kontrasni,idrok hususiyatlari.

NAZORAT SAVOLLARI:

- 1) Idrokning psihologik tavsifi.
- 2) Idrokning turlari.
- 3) Vaqtni idrik qinish
- 4) Harakatni idrik qilish
- 5) Fazoni idrok qilish
- 6) Idrokni hususiyatlari.

ADABIYoTLAR

1. Ye.G.Goziev «Umumiy psixologiya» Toshkent universiteti 2002 yil
2. A.V.Petrovskiy «Umumiy psixologiya» Toshkent O‘qituvchi 1996
3. Ye.G.Goziev «Psixologiya metodologiyasi» Toshkent universiteti 2000 yil
4. Ye.G.Goziev «Xulq atvor va motivatsiya» Toshkent 2002 yil

5. Daminov A.V. va boshqaalar “Psixologiyadan seminar va laboratoriya ishlanmalari”
6. Xaxlova Z.N. “Talabalar uchun psixologiyadan topshiriqlar”

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. P.Ivanov «Umumiy psixologiya» Toshkent 1986 yil
2. M.O.Gemezo «Psixologiya» Toshkent 1996 yil
3. V.Karimova «Psixologiya asoslari» Toshkent universiteti 2005 yil
4. G.U. Shoumarov «Psixologiya asoslari»